C1 Gapirish ko‘nikmasini baholash mezoni

| Ball | So‘z boyligi | Grammatika | Nutq ravonligi va matn yaxlitligi | Kommunikativ samaradorlik | Talaffuz |
|---|---|---|---|---|---|
| **6 (Daraja talabidan yuqori)** | • juda keng ko‘lamli so‘z boyligi, jumladan, o‘rinli qo‘llangan kam ishlatiladigan so‘zlar<br>• leksik repertuar har qanday mavzuda fikr bildirishini cheklamaydi<br>• leksik bo‘shliqlarni perifrazadan samarali foydalangan holda to’ldiradi<br>• idioma va iboralardan samarali foydalanadi | • xilma-xil murakkab strukturalar<br>• grammatik aniqlikning izchil yuqori darajasini namoyon etadi<br>• qo‘shma gaplardan unumli va bexato foydalanadi<br>• grammatik xatolardan holi | • tiniq, ravon, to‘liq izchil nutq<br>• bog‘lovchi vositalar va diskurs markerlardan samarali va to‘g‘ri foydalanadi<br>• zarur bo‘lganda mavzularni batafsil tavsiflaydi va hikoya qiladi, sub-mavzularni birlashtiradi, tegishli xulosalar chiqaradi<br>• hech ikkilanishsiz javob beradi | • javoblar to‘liq o‘rinli va batafsil<br>• vaziyatga mos keladigan uslubiy vositalarni tanlash orqali fikrlarni aniq va ravshan ifoda etadi<br>• vaziyatga mos registrdan foydalanadi va vaziyat talab qilgan taqdirda tegishli registrlarni o‘zgartiradi | • talaffuz tushunarli<br>• ma’noni yetkazish va kuchaytirish uchun xilma-xil fonologik vositalardan (urg‘u, ohang, temp) mohirona foydalanadi<br>• ona tili ta’siri sezilmaydi |
| **5** | *4 ba 6 ball oralig‘ida*<br>*(4 ballning hamma ijobiy tomonlarini hamda 6 ballning ayrim xususiyatlarini namoyon qiladi)* | | | | |
| **4 (Daraja talabiga mos)** | • keng ko‘lamli so‘z boyligi, jumladan, kam qo‘llanadigan so‘zlar va iboralar<br>• xilma-xil mavzularda fikr bildirish uchun so‘z boyligi yetarli<br>• so‘z topishga deyarli qiynalmaydi, perifrazadan unumli foydalangan holda leksik bo‘shliqlarni to’ldiradi<br>• xatolar ma’noni tushunishga xalal bermaydi | • xilma-xil sodda va murakkab strukturalardan samarali foydalanadi<br>• ko‘p hollarda grammatik xatolardan holi gaplar tuzadi, biroq murakkab strukturalarni qo‘llashda ayrim xatoliklar uchrab turadi<br>• xatolarni o‘zi tuzatadi va ular ma’noni tushunishga xalal bermaydi | • matn yaxlitligini saqlagan holda qiyinchiliksiz ravon gapiradi<br>• bog‘lovchi vositalar va diskurs markerlaridan unumli foydalanadi<br>• o‘z fikrini ravon, tabiiy, deyarli ikkilanmasdan ifodalaydi | • javoblar o‘rinli, kamdan kam hollarda mavzudan chekinadi<br>• ayrim hollarda uslubiy vositalar noo‘rin qo‘llansa-da, fikrlarni aniq va ravshan ifodalaydi<br>• uslubga mos registrdan foydalanadi | • talaffuz tushunarli<br>• ohang mazmunga mos<br>• so‘z va gap urg‘usi o‘rinli<br>• tovushlarni aniq va tiniq talaffuz qiladi<br>• ayrim hollarda ona tili ta’siri seziladi |
| **3 (Daraja talabiga yaqin)** | • asosan notanish mavzularda fikrini aniq yetkazishda leksik repertuar nomzodni ba’zan cheklaydi<br>• idiomalardan kam foydalanadi<br>• kam qo‘llanadigan so‘zlarni ishlatishda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yadi<br>• perifrazadan asosan unumli foydalanadi<br>• xatolar ma’noni tushunishga deyarli xalal bermaydi | • sodda va ayrim murakkab strukturalardan foydalanadi<br>• murakkab strukturalarni qo’llashda xatolarga yo‘l qo‘yadi, biroq ular ma’noni tushunishga deyarli xalal bermaydi | • uzun diskurs yaratishga harakat qiladi, biroq ayrim hollarda ikkilanish, takror va o‘zini tuzatishlar sababli matn yaxlitligi buzilishi mumkin<br>• xilma-xil bog‘lovchi vositalar va diskurs markerlaridan foydalanadi, biroq doim ham o‘rinli emas | • javoblar asosan o‘rinli<br>• uslubiy noo‘rin tanlangan til vositalari ayrim hollarda nutqiy g‘alizlik keltirib chiqaradi, biroq muloqot o’rnata oladi<br>• muloqotga kirishish va uni olib borishda deyarli yordamga tayanmaydi | • ohang, urg‘u va tempdan asosan samarali foydalanadi<br>• talaffuz tushunarli, biroq ayrim so’zlarni talaffuz qilishdagi xatolar nutq aniqligini pasaytiradi<br>• ona tili ta’siri sezilarli |
| **2** | *1 va 3 ball oralig‘ida* | | | | |
| **1 (Daraja talabiga javob bermaydi)** | • leksik repertuar notanish mavzularda fikr bildirish uchun cheklangan<br>• perifrazadan foydalanishga harakat qiladi, biroq doim ham unumli emas<br>• idiomalardan foydalanmaydi<br>• xatolar ayrim hollarda ma’noni tushunishga xalal beradi | • xilma-xil sodda strukturalardan foydalanadi<br>• sodda gaplarni tuzishda xatolarga yo‘l qo‘ymaydi<br>• murakkab strukturalardan kam foydalanadi, ularni qo‘llashdagi xatolar ma’noni tushunishga xalal beradi | • odatda takror, o‘zini tuzatish yoki sekin gapirish orqali nutq ravonligini ta’minlaydi<br>• ayrim bog‘lovchilar va markerlarni me’yordan ortiq ishlatadi<br>• sodda nutq hosil qilishi ravon, biroq murakkab fikrlarni ifodalashda nutq ravon emas<br>• ikkilanish, takror va uzilishlar tinglovchini charchatadi | • javoblar qisman o‘rinli<br>• tanlangan uslubiy vositalar doim ham o‘rinli emas<br>• muloqotga kirishish va uni olib borishda ozroq yordamga tayanadi | • ohang, urg‘u va tempdan ayrim hollarda noto‘g‘ri yoki noo‘rin foydalanadi<br>• ayrim so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi<br>• ona tili ta’siri kuchli |
| **0** | *1 balldan past* | | | | |